

Zikrilla NE'MAT

# A'LOCHILAR ALIFBOSI



Toshkent – 2021

**UO‘K 821.512.133-1**

**KBK 83.8**

**N 35**

**Ne‘mat, Zikrilla**

A‘lochilar alifbosi [Matn]: adabiy-badiiy / Z.Ne‘mat – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2021. – 48 b.

ISBN 978-9943-6836-2-4

*Aziz bolajonlar!*

*Iste‘dodli shoir akangiz – Zikrilla Ne‘matning siz azizlarga atalgan “Besh baho olgan kunim, “Jirafa nechun xafa?”, “Mardi maydonlar yurti”, “Ayiqning nabirasi” kabi kitoblari chop etilgan.*

*Uning yangi she‘rlari, quvnoq topishmoq va tez aytishlari jamlangan “A‘lochilar alifbosi” nomli ushbu mo‘jaz kitobi ham qalbingizga o‘ziga xos beg‘uborlik, zavq va quvnoqlik olib kiradi va sizga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz.*

**UO‘K 821.512.133-1**

**KBK 83.8**

*Taqrizchi:*

**Nargiza To‘xtayeva,**

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

ISBN 978-9943-6836-2-4

© Z.Ne‘mat  
© “Muharrir nashriyoti”,  
Toshkent, 2021

## **A'LOCHILAR ALIFBOSI**

### **A**

A'lochi bo'lay desang –  
Albat, o'qib ilm ol.  
Aqlu odob bobida –  
Ajdodlarga sodiq qol!

### **B**

Bobolarim quchgan shon –  
Baxtu merosdir bizga.  
“Balli!” degay keksa-yosh,  
Bilimdon o'g'il-qizga.

### **D**

Durdek terib daftarga  
Daholar nomin bitgum.  
Dono elim dovrug'in  
Dunyoga doston etgum.

### **E**

Erkatoy bo'lma, do'stim,  
Epchil-u chaqqon bo'lg'in.  
Ezgulik qilib doim,  
Eng yaxshi inson bo'lg'in!

## F

Faol bo'lish, intilish –  
Foydadir jismu tanga.  
Farhod bo'lib suv chiqar,  
Foydang tegsin Vatanga!

## G

Gulzorimga gul ekdim,  
Gurkiradi bahorda.  
Gullaringa suv sepdim,  
Goh shom, gohi nahorda.

## H

Handalak ekdi bobom,  
Hovlimiz ichra shodon.  
Har yon taralgan xushbo'y -  
Hididan yayraydi jon.

## I

Ilmu fanga mehr qo'y,  
Izlanish– baxt mayog'i!  
Ilmu fan-la porlagay,  
Inson aql chirog'i.

## J

Jamshid, Javlon hamda men,  
Juma kuni dars qildik.  
Jug'rofiya fanidan –  
Juda qizg'in bahs qildik.

## K

Kitob bilan daftarni  
Kimki sirdosh etgaydir.  
Kundan-kun zafar quchib,  
Kamolotga etgaydir.

## L

Lola tergali chiqdik  
Lola, Lobar hamda men.  
Lolaqizg'aldoqlardan  
Lovullaganda zamin.

## M

Mehribonim, muallim,  
Menga berdingiz ta'lim.  
Munisu oq ko'nglingiz  
Mehrga to'la lim-lim!

## N

Necha asr Navoiy bobom,  
Nazm bog'in kelar yashnatib.  
Ne dillarni go'zal nazmi-yu  
Navolari birla yayratib.

## O

Osuda bu olamga  
Oppoq tonglar yarashar.  
Oqil, zukko odamga –  
Olqish, shonlar yarashar!

## P

Pech ichida zuvola  
Pishib, bo'lmish piyola.  
Peshtaxtada turar u  
Porlab bamisli lola.

## Q

Qaldirg'ochlar har bahor,  
Qaytganda bizning uyga.  
Quvonchdan to'lar qalbim  
Quvnoq qo'shig'u kuyga.

## R

Ro'zi rasm darsida -  
Raketa rasmin chizdi.  
Ra'no esa yog'ochdan  
Robot yasab, yurg'izdi.

## S

Samolardan har oqshom,  
Sirli-sirli kuy oqar.  
Sokin Ulug'bek bobom –  
Samodan kulib boqar.

## T

Titib tarix kitobin,  
Topdim bobolar nomin.  
Tuzuklari oshirmish  
Temur bobomning shonin.

## U

Ustoz, aziz ustozim,  
Umrbod sizga ta'zim.  
Umidga to'ldirdingiz  
Umrinning bahor-yozin.

## V

Vatan ichra yashnagan-  
Vaqti chog' bolalarmiz.  
Vohta-vodiylar ichra –  
Baxtli gul-lolalarmiz.

## X

Xayol surib biz nogoh,  
Xato qilib qo'ysak goh.  
Xabardor bo'lib ustoz,  
Xavfdan etgaydir ogoh.

## Y

Yillar o'tib, shod bo'lursan,  
Yig'sang ilmu hikmat durin.  
Yo'llaringga mayoq etsang,  
Yo'lchi yulduz – yurak qo'rin.

## Z

Zuhro yulduz jilmayib,  
Zarrin nurin sochganday.  
Zakiy, dono ustozlar,  
Zehnimizni oshirgay.

## O

O'quvchi – jajji nihol,  
O'qituvchi – bir bog'bon.  
O'qib, izlanib hushhol,  
O'quvchi quchgaydir shon.

## G

“G'uncha” jurnalni o'qib,  
G'uncha ochar orzular.  
G'ayrat berur dillarga  
G'aroyib his-tuyg'ular.

## SH

Shiroq bobom mardligi  
Sharqu G'arbni lol etgay.  
Shunday mard bor elning,  
Shoni olamni tutgay.

## CH


Chigirtkadanmas, do'stim,  
Chumolidan ibrat ol!  
Chaman etgancha yurtni,  
Chin mehnat bag'rida qol.

## NG

Deyishadi seni “ng”?  
Alifboda bor o'rning.  
Bu gapdan ko'tarilib  
Ketmasin tag'in burning.



,  
Tutuq belgisi bordir  
Ba'zi so'zlarda, do'stlar.  
Bular – Ra'no-yu, ma'no,  
She'r kabi a'lo so'zlar.



### **MAKTAB BORISH ORZUSI**

Yoshim oltidan oshib,  
Yettiga qarab ketdi.  
Maktab so'zin eshitib,  
Yuragim yayrab ketdi.

Bog'chada o'rgandim men  
Yozish, chizish, o'qishni.  
O'rgandim to'rt faslni –  
Bahor, yoz, kuz va qishni.

Qoyillatib qo'yaman –  
Yuzgacha sanashni ham.  
Bog'cha opam o'rgatgan  
Ruschada so'zlashni ham.

Endi yorug' yuz bilan  
Men maktabga boraman.  
Sinfda eng a'lochi,  
Zo'r o'quvchi bo'laman.



## VATAN BAYROG‘I

Kurashga otlangan yovqur askarday,  
Hilpirab borursan mag‘rur va ildam.  
Najmiddin Kubrodek mardlaring eslab,  
Bir ajib tuyg‘ular kechmoqda dildan.  
O, Vatan bayrog‘i, Vatan bayrog‘i,  
Ajdodlardan meros mardlik mayog‘i!

Samoga timsoldir moviy quchog‘ing,  
Yashil rang – yashnagan bog‘u gulbog‘ing,  
Cho‘g‘dek chiziqlarga termulgan onim,  
Jo‘shqin tomirlarda jo‘sh urar qonim.  
O, Vatan bayrog‘i, Vatan bayrog‘i,  
Sensan yuraklarning shiddat, chaqmog‘i!

Bag‘ringni yashnatar nur sochgan hilol,  
O‘n ikki yulduzing – posbonlar misol.  
Mangu hilpirayver, boshimiz uzra –  
Bo‘lib baxtu iqbol, omadga timsol.  
O, Vatan bayrog‘i, Vatan bayrog‘i,  
Dilga hech tushmasin yurtning firog‘i!



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/7599> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/7599> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно  
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/7599>